



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus  
son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

***Nº S/5 (5) - 2025***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy

kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI  
5-jild, 5- maxsus son (Iyun, 2025). - 302 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Abdullaev Ulug'bek Saydanovich</i>	
O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR .....	10-14
<i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i>	
BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO'RQLASH, QOROVULLIKNI O'TASH VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI T AHLILI .....	15-19
<i>Rahmankulova Adolat Xushbakovna</i>	
ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ .....	20-25
<i>Xusanov Xabibullo Xakimovich</i>	
O'ZBEKİSTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZİDDİYATLI VAZİYAT VA MILLİY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNİNG TARİХİY AHAMIYATI .....	26-30
<i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i>	
THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR .....	31-38
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i>	
THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....	39-42
<i>Nazirov Baxtiyor, Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li</i>	
IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI .....	43-48

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Исламутдинов Вадим</i>	
СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	49-54
<i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i>	
BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHligini OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	55-65
<i>Ульмас Ибрагимов</i>	
ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	66-75

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Salomova Hakima Yusupovna</i>	
ME'YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI .....	76-83
<i>Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i>	
YURIDIК TA'LIM VA YURIDIК KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA.....	84-90
<i>Djo'raev Anvar Muxamadiyevich</i>	
IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI .....	91-96

<i>Каримова Гулчехра Самадовна</i>	
ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО- ЭТИЧЕСКИХ.....	97-101
<i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i>	
ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....	102-105
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i>	
YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....	106-110
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i>	
O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	111-116
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i>	
TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....	117-120
<i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i>	
SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI.....	121-125
<i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i>	
ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI.....	126-130
<i>Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин</i>	
ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....	131-135
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'alevna</i>	
EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....	136-139
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Muqumova Dilafruz</i>	
IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....	140-147
<i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i>	
TAXAYYUL OLAMI TAHILLARI.....	148-159
<i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i>	
ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS .....	160-163
<i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i>	
FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI .....	164-168
<i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i>	
TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLER SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI.....	169-172
<i>Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i>	
BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA .....	173-177
<i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i>	
FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....	178-182

<i>Яркулова Фотима Усмановна</i>	
ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ .....	183-186
<i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i>	
О'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLER OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR.....	187-190
<i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i>	
THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE" .....	191-195
<i>Yuldasheva Kamola</i>	
SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....	196-202
<i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i>	
HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....	203-206
Kamola Hatamova	
HUJJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	207-210

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i>	
PROBATSIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI .....	211-216
<i>Mamatmurodov Farrux</i>	
METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE .....	217-222
<i>Муталипова Лола Фархадовна</i>	
СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	223-234
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ .	235-241
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna</i>	
RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....	242-246

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i>	
RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI.....	247-252
<i>Namozova Dilorom Tursunovna</i>	
MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI .....	253-261
<i>Давыдова Руфина Артуровна</i>	
РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ .....	262-266
<i>Gaziev Baxromjon Valievich</i>	
OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI .....	267-273

<i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i>	
DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI:	
O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	274-279
<i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i>	
TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARING	
KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI:	
AMALIYOT VA TAJRIBA.....	280-286
<i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i>	
MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA	
QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	287-290
<i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i>	
IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI .....	291-295
<i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i>	
TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI .....	296-301

**Received:** 2 June 2025

**Accepted:** 15 June 2025

**Published:** 30 June 2025

*Article / Original Paper*

## **ANALYSIS OF BORDER PROTECTION, GUARD DUTY AND SECURITY ISSUES IN THE EMIRATE OF BUKHARA**

**Shukurillayev Yunus Asrorovich,**  
Associate Professor,  
Bukhara State Technical University,  
Candidate of Historical Sciences

**Abstract.** Based on archival sources, the article analyzes information about the construction of settlements for the army during the reign of Emir Nasrullah, who founded the regular army in the Emirate of Bukhara, the order of deployment, organization of troop movements, and the situation of the barracks of the emirate's army during the protectorate of Bukhara, the Russian Empire.

**Keywords:** horde, horde, tent, disembarkation, barracks, redeployment, tailoring, installation, security, sarbaz, cavalry, sarhang.

## **BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO'RIQLASH, QOROVULLIKNI O'TASH VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI TAHЛИLI**

**Shukurillayev Yunus Asrorovich,**  
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti,  
tarix fanlari nomzodi  
E-mail: [yunus-a@mail.ru](mailto:yunus-a@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada Buxoro amirligida muntazam qo'shinga asos solgan Amir Nasrulloxon davrida qo'shin uchun qarorgohlar qurish, o'rnatish tartib-qoidalari, qo'shining ko'chishini tashkil etish, Rossiya imperiyasi protektorati davrida amirlik qo'shini kazarmalarining ahvoli, holati to'g'risidagi ma'lumotlar arxiv manbalari orqali tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** o'rdu, o'rda, chodir, qo'nalg'a, kazarma, ko'chish, tikish, o'rnatish, qorovul, sarboz, suvoriy, sarhang.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N02>

**Kirish.** Buxoro amirligida cheragalarni qo'riqlash, qorovullik xizmati hamda xavfsizlikni ta'minlash masalasi kam o'rganilgan mavzular qatoriga kiradi. Mamlakat chegaralarini qo'riqlovchi Elnavkarlar deyilib, ular to'g'risidagi ma'lumotlar Buxoro xonligi davrida (1533-1756) ham manbalarda uchraydi. Buxoro amirligidagi 28 beklikning har birida Elnavkarlar nizomiy guruhi mavjud bo'lib ularning asosiy vazifasi o'z bekliklarida tinchlikni saqlash, chegaralarni himoya qilishdan iborat bo'lган [1; 1-ro'yxat, 1526-yig'majild, 6-varaq].

**Muhokama va natijalar.** Mazkur guruhi tashkil etilgan davrlarda hududlarda yashovchi aholidan olinib bo'lib, asosan xizmat hashar yo'li orqali amalga oshirilgan, aholi o'z hududini o'zi himoya qilishi, qo'riqlashi uchun mas'ul bo'lган. Qolgan hududlarda faoliyat ko'rsatgan elnavkarlarning nomlanishi, soni xususida ilovadagi jadval orqali bilib olishimiz mumkin. Elnavkarlarning amirlik chegaralari bo'ylab joylashuvi quyidagi jadvalda o'z aksini topgan [2; 14-15 b].

Nº	Bekliklar	Dastalar soni	Elnavkarlar soni	Qaysi urug'ga mansubligi
1	Shahrisabz	1 dasta	150 ta	Kenagas
2	Hisor	1 dasta	150 ta	Laqay
3	Chorjo'y	1 dasta	150 ta	Tukman
4	Karki	1 dasta	150 ta	Turkman
5	Boljuvon	1 dasta	150 ta	Laqay
6	G'uzor	1 dasta	150 ta	Laqay
7	Dorboz	1 dasta	150 ta	Laqay
8	Burdaliq	1 dasta	30 ta	Laqay
9	Qorategin	1 dasta	150 ta	Laqay
10	Ko'lob	1 dasta	150 ta	Laqay
11	Denov	1 dasta	150 ta	Laqay
12	Sherobod	1 dasta	150 ta	Laqay
13	Boysun	1 dasta	150 ta	Laqay
14	Kalif	1 dasta	20 ta	Laqay
15	Kitob	1 dasta	50 ta	Kenagas
16	Nurota	1 dasta	150 ta	Qirg'iz
17	Xatirchi	1 dasta	150 ta	Qirg'iz
18	Karmana	1 dasta	150 ta	Xitoy

Barcha bekliklarda ham elnavkarlar xizmatidan foydalanilib, ularning eng katta qismi yetti amloklikdan iborat Buxoro bekligiga (Buxoro, Xo'jai-Jahon, Vobkent, Pirmast, Xo'ja Orif, Romitan, Zarmitan) to'g'ri kelgan. Buxoro bekligida 150 nafardan iborat 9 ta dasta tashkil etilib ushbu dastalar har qaysi turkiy guruhlar, joy nomlari bilan atalgan. Bekligidagi 9 dastadan iborat elnavkarlar quyidagicha nomlangan. 1. Mang'it 2. Xitoy 3. Qirg'iz 4. Qipchoq 5. Ushruq 6. Arab 7. Nayman 8. Burgut 9. Saroy.

Tadqiqot obyekti, manbaviy asosi. Elnavkarlar doimiy harbiy xizmatchi hisoblanmay 150 nafarli dasta 6 oydan navbat bilan qorovullik hamda hammollik xizmatini o'tashgan. Qolgan vaqtarda dastadagi 75 kishi o'z uyida yashagan. Elnavkarlar asosan mahalliy qurol – yarog' bilan qurollantirilib, ular uchun maxsus harbiy kiyim berilmagan, asosan shoxmiltiq, xanjar, qilich va boshqa qurol –yarog'lardan foydalanishgan. Aksariyat holatlarda aholining uylarida mavjud bo'lgan tabarzin, oybolta, cho'qmor, shashpar, balka singari asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan azaliy sovuq qurollardan ham keng foydalanishgan [3; INNº 997/11, 2623/11, 2624/11, 2626/11, 4063/13, 5147/20, 5839/15, 8206/15, 9239/15, 9241/15, 12967/15, 21754/15].

Moddiy sharoitlari imkon beradigan elnavkarlar xizmatga o'z otlari bilan borganlar. Shuning uchun ham bu guruhni na otliq, na piyoda askarlar qatoriga qo'shishimiz mumkin. O'z otlari bilan xizmat qilgan harbiy xizmatdagilarning otlari "Tamg'asiz otlar" yoki "Tamg'asiz otl elnavkarlar" deyilgan. Amirlik tomonidan ot bilan ta'minlangan elnavkarlar "tamg'ali otl elnavkarlar" deyilgan.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Amir Haydar hukmronligi davridan boshlab elnavkarlarga yilida bir bor 50 tangadan iborat "sarpo-puli" berila boshlangan. Guruh harbiy mansabдорлари esa bundan tashqari o'z tanho yerlari hamda tegirmonlarga ega bo'lganlar. Arxiv hujjalarda xizmatlari uchun yerga ega bo'lish maqsadida ariza yozganlarning nomlari keltirilgan:

Husaynbekbiy qulingiz Oliy marhamatingizdan Oliy muboraknomadagi 14 nafar qullaringiz “el” navkariyasidagi g’ulomlaringiz tarkibiga kiritilgan edi. Ular haqingizga benihoya duolar qildilar. Nurilloxo’ja Xayyom, To’raxo’ja Hayyom, Yormuhammad Hayyom, Abdusattor Hayyom, Xoji Shodibek Mirzaboshi Hayyom, Niyozchehraboy Pahlavon, Ulug’berdi Jahonboy, Turdi Bahrom og’a, Qorabek oqsoqol, Bekmurodbek Hisorqul, Qalandar yasovul, Fozil yasovul va Ro’zimurodbek qullaringiz Oliy o’rdaxonangiz tomonidan ularga yetadigan yer olishdan umid qiladilar. Oliy ijozatingiz bilan hazratim davlatlaridan ularga yarasha yerni xatlab bersak...1294/1877-1878 yil [1; 1625-yig’majild, 10-varaq].

Amirlik chegaralarida qorovullik xizmatlarini o’tovchi Elnavkarlari guruhi mahalliy qurol – aslahalari bilan qurollangan bo’lib, ularning harbiy dala mashqlari o’tkazishganliklari xususida biror manbalarda ma’lumotlar keltirilmagan.

Ko’zga ko’ringan elnavkarlar orasidan keyinchalik boshqa nizomiy guruhlarga ham qabul qilinishi, ularning yuqori harbiy lavozimlarga erishuvi va boshqa jihatlar ko’pgina manbalarda e’tirof etib o’tiladi. Elnavkarlar 1920-yilga qadar faoliyat ko’rsatganligini hisobga oladigan bo’lsak, ularga amirlikda ma’lum darajada ehtiyoj bo’lganligini ko’ramiz.

Nasrulloxon hukmronligining so’nggi yillarida nafaqat amirlik, mintaqa tarixida birinchi bo’lib qo’shinda “Buxoro davlatining harbiy Nizomi” [4; v 93] qo’llanila boshlandi. Harbiy Nizom o’sha davrning eng rivojlangan davlatlari qoidalari bilan mujassamlashib, amirlikda qo’riqlash, qorovullikni o’tash hamda xavfsizlikning ta’minlanishiga alohida e’tibor qaratildi.

Mazkur nizomning uchinchi bobi “**Qorovul mashqining odoblari va qoidalari**” deb nomlanib, besh fasldan iborat. Birinchi faslda “Qorovulni tayin qilish odobi to’g’risida”gi qoidalalar aks ettiriladi:

Ajudanboshi (ya’ni, ad’yutantlarning boshlig’i) har bir topshiriqni favjlar sarhangiga (sardor, sarkarda) yozib turadi. Sarhang esa o’ziga qarashli favjning ajudaniga bir kun avval ertaga nechta qorovul kerakligi to’g’risida xabar beradi. Favj ajudani jadvalga muvofiq dastajotga taqsimlab, sardastalarni xabardor qiladi. Birinchi vakil esa sarjuqa (olti nafardan iborat qo’shin guruhi boshlig’i) va sarbozni xabardor qilishi qat’iyan shart. Negaki, ular ertaga qorovullik navbatni ekanligidan g’ofil qolmasligi kerak. Mabodo, navbatni kelgan sarboz kasal bo’lsa yoki qoidaga muvofiq u兹rl sababga ko’ra kelolmasa, o’rniga boshqa qorovul belgilanadi. Kundan uch soat o’tgach qorovulni “hozir bosh”ga chaqiruvchi surnay va nog’ora chalinadi. Bu paytda har bir qorovulda bo’lishi kerak bo’lgan sarboz hech qanday uzrlarsiz o’z joyida hozir bo’lishi kerak [4; v 54]. Nizomga ko’ra, qorovullar favj chodirlarining oldida safar vaqtida va maydonda sarbozlar hozir bo’lganda bo’lishi lozim. Favj ajudani o’rduning oldi va orqasiga sarhangning bayrog’i oldida mansabdorlardan qorovul turishini ta’lim beradi. Humoyun dargohga, lashkarxona oldiga, qo’rxonaga, istabli humoyun (podshoh otxonasi) yoniga va boshqa muhim buyutot (diqqatga sazovor uylar) oldiga esa hukmi oliyga muvofiq qorovullarni qo’yib chiqadi. Bu joylarda mansabdorlar (ya’ni, harbiy unvoni yuqori bo’lganlar) qorovullik qilishlari kerak. Chunki ular miltiqni ishlatishni va ishlatish joylarini benuqson bilishi, fashang (gilza), sang (chaqmoq toshi) va fonusqa (o’qlar joylanadigan tasma) kabilarni bexato ishlatib bilishi kerak. Bundan ko’rinadiki, Nasrulloxon qorovullik, qo’riqlash, xavfsizlik masalalarida o’zidan oldingi va keyingi amirlardan farqli o’lar oq xizmatning asosiy yukini yuqori mansabli harbiylar zimmasiga yuklaydi shunga yarasha talab va rag’batni ham amalga oshiradi. Qorovullar sarbozlarning mansabdorlari (unvoni yuqorilari) dan tayinlanadi, ular kecha-yu kunduz qorovullikdan chalg’imaydilar, qorovulxonadan ketmaydilar. Zarur bo’lgan oziq-ovqat,

ko'rpa-to'shaklarini xonadoshlari bilan birgalikda tayyorlaydilar. "Hozir bosh" buyrug'ini eshitishlari bilan hozir bo'ladi va qanday topshiriq bo'lishini kutib turadilar.

Humoyun dargoh qorovullariga favjning bayrog'i hamroh bo'lishi shartligi, agar ularning soni yuztadan oshadigan bo'lsa, yana qo'shimcha mansablar ham berishi mumkinligi, biroq bu qorovullarning aksari yuqori mansabli harbiylardin bo'lishi kerakligi Nizomning ikkinchi faslida zikr etiladi [4; v 54].

Uchinchi faslda "Favj qorovullariga taalluqli bo'lgan buyruqlar va mashq qoidalari odobi", to'rtinchi faslda "Qorovul va keshikchi (posbon)ni almashtirish to'g'risida"gi qoidalari keltiriladi. Qorovullikda turgan sarboz o'z o'rniga boshqa qorovul kelayotganini ko'rgandan so'ng "hozir bosh" holatida turadi. Yangi qorovul yaqin kelishi bilan qorovul dasta boshlig'i "Qorovuli toza ohista march" buyrug'ini beradi. Eski qorovulning ro'parasiga borgach "holt" buyrug'ini beradi. Sardasta eski qorovulga "holt" buyrug'ini bergandan keyin yangi qorovulga "safdur march" buyrug'ini beradi. Keyin eski qorovulga ham "safdur march" va "bapesh fang" deb buyruq beradi. Yangi qorovulga ham "bapesh fang" buyrug'ini beradi. Yangi va eski hamma qorovul boshliqlari shamshirlarini baland ko'targan holda vakillar va sarjuqalar esa "bolo fang" qilgan holda yangi va eski qorovullar oldiga keladilar. Eski qorovullar topshiriqning qanday bajarilgani va dasturul amal bo'yicha bo'lgan ishlarni axborot beradilar. Yangi qorovul boshliqlari tanishtiriladi. Shundan so'ng buyruq berilmasdan "rost kard" qilib, o'ngga burilib, o'z joylarini egallaydilar [4; v 59].

Beshinchi fasl "Gazma (Qorovullik xizmatini o'tovchilar ustidan nazorat qilish, "Sarhangi gazma" ushbu ishni amalga oshiruvchi mansab egasi) odobi va yuqori mansabdorlarga hurmat ko'rsatish" deb nomlanib bunda asosan qorovullik xizmatini tashkil etish, ular holatini muntazam nazorat qilish, xavfsizlikka qat'iy e'tibor qaratish hamda yuqori mansabdorlarga hurmat ko'rsatish qoidalari mujassamlashgan. Xususan, sarhangi gazma har uch soatda sardasta va o'zining noibini qorovullar holatini tekshirish uchun yuborib turishi, sarhangning o'zi bir kechada kamida ikki marta posbonlar yoniga chiqib, holatdan xabardor bo'lishi, bundan tashqari jang o'rdusining qorovul yordamchisini ham bir-ikki bor posbonlardan xabar olishga yuborib kechqurun boshlanishidan tong otgunga qadar to'xtovsiz bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lib turishi kerakligi, bulardan tashqari har kechaga qorovullar orasida bir ism (parol) berishi kerakligi, bu ism tashqaridan keladigan kishi ichqariga kirishi va begona kishi kiroqlasligi uchun ramz bo'lishi, har kecha qorovullar almashganda ehtiyyot uchun bu ism ham o'zgartirib turilishi shartligi aytib o'tiladi [4; v 63]. Xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan bunday qoidalari Yevropa, Rossiya va sharq mamlakatlari harbiy Nizomlarida ham o'z aksini topgan.

Har tunda sarhangi gazma postlarni tekshirishga kelganda keshikchi (posbonlar) kelayotgan odamga qarab, uzoqdan balan ovoz bilan "kim u" deydi. Sarhang unga javoban o'sha kecha uchun maxsus qilingan ismni sekin aytadi. Keshikchi "siyna fang" holatini qiladi, sarhang yetib kelgach, qorovul chatmasining yoniga yetgach, sarboz va mansabdor sarboz "hozir bosh" holatida bo'ladi. Mansabdor sarboz keshikchiga "badush fang" buyrug'ini beradi va ikki nafar vakilni gazma tekshirib, aniqlash uchun yuboradi. Ular borib, sarhangi gazma ekanligini aniqlab, axborot bergach, gazma kelib, qorovullar holatini ko'radi, ularning sonini sanaydi va tekshiradi. Favjlarning qorovullarining ixtiyori qo'lida bo'lgan sardastalar ertalab yangi qorovul almashgach, kechasi bo'lib o'tgan ishlarni yozib borish uchun tayinlangan ro'znomcha (ro'znomachi, postdag'i voqealarni yozib boruvchi kishi)ni yozgan axboroti bilan tezda

sarhangning oldiga yuboradi. Agar mansabdorlardan birontasi noto'g'ri ish sodir qilib qo'ysa, uni darhol almashtiradi va bu ishda kechikishga yo'l qo'ymaydi.

Qorovullikda turgan sarboz "kim u" deb savol bergani paytda javob o'sha kelishilgan ism bo'lmasa, va noto'g'ri aytsa, demak, bu odam tashqaridan begona kishi bo'ladi. Jang o'rdusi oldida bunday voqeа sodir bo'lsa, demak, kelayotgan kishi dushmandir. Shuning uchun keshikchi darhol miltig'idan o'q otib, boshqa keshikchilarni ham bu ishdan xabardor qiladi. Barcha qorovullar "hozir bosh" holatiga kiradilar va o'sha odamni ushlab, vakilni xabardor qiladilar. Ushlangan odamni mansabdor oldiga olib boradilar. Uning tanish yoki hurmatli odamligi ma'lum bo'lsa, uni yo'liga qo'yib, qorovullar yonidan o'tkazib yuboradilar. Agar begona bo'lsa, qorovulxonada ushlab turilib tong otgach, sarhangga bildiriladi. U nimani taqozo qilsa, o'sha bajariladi [4; v 65].

**Xulosa.** Mamlakat chegaralarini qo'riqlash, xavfsizligini ta'minlash ishlari xazinadan tejash, aholining hashar yo'li bilan amalga oshirilishi yurt taqdiriga befarqlikning yorqin namunasidir. To'g'ri, Amir Nasrulloxon davrida muntazam qo'shinga asos solinib, bu masala davlat ahamiyatiga molik ishlar amalga oshirilsa-da, keyinchalik yuzaga kelgan e'tiborsizlik pirovardida mamlakat taqdirini qanday kechganligiga tarix guvohdir.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. O'zbekiston Milliy arxivining I-126 -fondi - Buxoro amirligi qo'shbegi devonxonasi.
2. Samarqand shahridagi O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxivi. Hujjat №814.
3. Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi fondlari (INN№ 997/11, 2623/11, 2624/11, 2626/11, 4063/13, 5147/20, 5839/15, 8206/15, 9239/15, 9241/15, 12967/15, 21754/15).
4. Buxoro viloyat IIBning Jasorat tarixiy muzeyi №8, №14 eksponatlar.
5. Buxoro davlatining harbiy Nizomi. //Qo'lyozma. O'zR FA ShI. №2793. –B 93.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº S/5 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).